

**BOSHLANG'ICH SINF ONA TILI DARSLARIDA O'QUVCHILARNI IJODIY
FIKRLASHGA O'RGAJISH USULLARI**

Toshpo'latov Azamatjon Mehmonaliyevich

Qo'qon DPI o'qituvchisi

A'zamova Diyora Ahrorjon qizi

Qo'qon DPI talabasi

Annotasiya: Ushbu maqolada umumta'lim mакtablarining boshlang'ich sinf darslarida zamonaviy axborot texnologiyalari imkoniyatlaridan foydalanish afzalliklari yoritilgan.

Kalit so'zlar: innovatsiya, innovations jarayon, integratsiya, ta'lim-tarbiya, shaxs, jamiyat. Innovations muhit.

Hozirgi davr o'qituvchi va o'quvchi oldiga katta talablar qo'yemoqda, bu talablarning eng asosiysi - darsning samaradorligi, uning sifatliligi, o'quvchilarning bilim va ko'nikmalariga, maktablardagi turli xil o'quv mashg'ulotlari, ularni tashkil qilinishi va u orqali o'quvchilami turli bilim va ko'nikmalami egallab olishadi. Bugungi kunda ta'lim jarayonini to'g'ri va samarali tashkil qilishda innovations texnologiyalar, texnik vositalarning, jumladan, zamonaviy kompyuterlarning o'rni beqiyosdir. Dars mavzusiga oid multimediya, animatsiya, grafika, diafilm va videofilmlardan foydalanish dars jarayonini yanada qiziqarli bo'lishiga ko'mak beradi, buning uchun esa o'qituvchi o'z ustida ishlashi va har bir darsga «men bugungi dars jarayoniga qanday yangilik bilan kirib, darsni qiziqarli tashkil qila olaman» deya o'ziga savol berishi ya'ni, an'anaviy ta'limdan qochib, noan'anaviy ta'lim berishga intilishi lozim.

Ayni ijodiy fikrlash masalasida boshlang'ich sinfdanoq o'quvchilarda ko'nikma hosil qilish kerak. Boshlang'ich sinf ona tili darslarida bu borada unumli ishlarni amalga oshirish keng imkon darajasida bo'ladi deyish mumkin. Ona tili darslarida o'quvchilarni ijodiy fikrlashga o'rgatishda muammoli ta'limga urg'u berish ham natijakor sanaladi. Ona tili darslarida muammoli ta'lim o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini, savodxonlik darajasini oshirishda hamda eng asosiysi, ijodiy fikrlashga o'rgatishda muhim o'rin tutadi. Pedagogik-psixologik tadqiqotlarning tahliliga, tajribasi yuqori bo'lgan o'qituvchilarning ish tajribalariga nazar solsak, boshlang'ich sinflarda ona tili ta'limiga muammoli yondashuvning ayrim xususiyatlariga e'tibor qaratilganligini ko'rishimiz mumkin. Bu yondashuv quyidagicha o'ziga xos xususiyatlarni belgilash imkoniyatini yaratadi:

* ona tilining o'quv predmeti sifatida ta'limiylar va tarbiyaviy ahamiyati, hayot bilan yaqin aloqasiga ko'ra boshqa fanlardan keskin farqlanishidir; * faqat boshlang'ich sinflarning ona tili darslari darslari uchun xarakterli bo'lgan metodik usullarda ish ko'rilib shida; boshlang'ich sinflarda yuzaga kelgan o'quv muammolari o'zida qandaydir hayotiy vaziyatni namoyon etmog'i lozim. Dars jarayonida o'quvchilar diqqatini jalb qilish uchun hech bo'Imaganda bir dona muammoli savolni markazga tashlash lozim bo'ladi. Shundan keyin yuzaga kelgan muammoli vaziyatning xarakterli belgisi — bir vaziyatdan tabiiy ravishda ikkinchisiga o'tish, bazi holatlarda yangi vaziyatlarning paydo bo'lishidir; * boshlang'ich sinflar ona tili ta'limalda nafaqat muammoli ta'limal, balki unga tayyorgarlik haqida ham gap boradi (hattoki, bilimlarni o'qituvchi muammoli bayon qilgan sharoitda ham), chunki o'quvchilar bunday bayonni qabul qilishga oldindan psixologik jihatdan ham, mantiqan ham tayyorgarlik ko'rgan bo'lishi joiz; * faqat ona tili darslaridagi paydo bo'luvchi muammoli vaziyatlar tipologiyasida; * boshlang'ich sinflardagi muammoli ta'limalda mashg'ullik elementi muhim rol o'ynashi bilan bog'liq. Mashg'ullikni muammoli vaziyat holatiga qadar olib borish ahamiyatlidir. Boshlang'ich sind ona tili darslarida o'quvchilarni ijodiy fikrlashga o'rgatishda ta'limal maskanlarida muammoli ta'limal ish turi samarador o'qitish texnologiyasi sifatida qaraladi. Bu bilan o'quvchilarda faol bilish jarayoniga undash va tafakkurda ilmiy-tadqiqot uslubini ham shakllantirish mumkin. Muammoli o'qitish o'quvchilarning ijodiy fikrlash borasidagi ko'nikmalarini shakllantirish bilan bir qatorda faol shaxs sifatida tarbiya olishida ham o'mi yuqori. Yana aytish joizki, o'quvchilarning aqliy fikrlashlarini tayyor, avvaldan tayyor, mavjud bo'lgan yo'llar bilan o'stirish maqsadga erishishning oddiy usuli bo'lib, u ijodkorlikka, izlanuvchanlikka olib kelmaydi. Muammoli ta'limal jarayonida esa o'quvchilar tahlillar asosida qo'llash, sintez qilish, umumlashtirish, faktik materialni aniqlashtirish, o'zi mustaqil yangi axborotni oladi. Boshlang'ich sind ona tili darslarida muammoli ta'limal orqali o'quvchilarni ijodiy fikrlashga o'rgatishda qator metodlarga murojaat qilish mumkin. Masalan, muammoli ta'limal sohasida tadqiqot ishlarini amalga oshirgan M.I.Maxmudov, M.N.Skekin, A.M.Matyuvsgikven, I.Y.Lanker singari olimlarning xulosalariga asoslanib, quyidagi muammoli ta'limal metodlarini dars jarayonlariga o'z o'mida qo'llash mumkin: - tushuntirish, namoyish etish; - muammoli bayon qilish; - reproduktiv; - ilmiy izlanish.

Xulosa. Muammoli ta'limal jarayoni avval olgan bilimlarini kengaytiradi, chuqurlashtiradi, o'zlashtiradi va eng muhimi, barchasini amalda qo'llay bilishga harakat qiladi. Olgan bilimlarini hayotda qo'llashda o'qituvchi

qo'llanma yoki darsliklardan tayyor bilim olishni bermaydi, u o'quvchi tomonidan izlab topiladi. Mana shu holatdagina izlanuvchanlik, sinchkovlik, ishslash metodikasi va ko'nikmalar o'z shakllanishini namoyon qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mahfuz, A. (2024). BADIY MATN VA LINGVOPOETIKA. FORMATION OF PSYCHOLOGY AND PEDAGOGY AS INTERDISCIPLINARY SCIENCES, 2(25), 145-148.
2. Egamqulovna, A. M. (2023). LINGVOPOETICS IS A BRANCH OF LINGUISTICS THAT STUDIES THE LANGUAGE OF ARTISTIC WORKS. *Gospodarka i Innowacje.*, 42, 23-26.
3. Egamkulovna, A. M. (2023). USING A SPELLING DICTIONARY IN STUDYING LITERACY AND CORRECTING STUDENTS'MISTAKES. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 11(2), 194-199.
4. Egamkulovna, A. M. (2022). Enhancing students' oral and written speech through educational dictations in primary school mother tongue classes.
5. Isaqov, Z., & Tajiboyeva, D. The Importance of Using Punctuation Correctly. *International Journal of Innovative Research in Science, Engineering and Technology*.
6. Isaqov, Z. S. 2nd Grade in the Textbook" Native Language and Reading Literacy" the Use of Types of Words According to the Attitude of Form and Meaning. *International Journal of Innovative Research in Science, Engineering and Technology*.
7. Yigitaliyeva, S. (2023). Yaxshilik konseptining bilvosita ifodalanishi. *Mug'allim*.
8. Oripova, K. (2022). TURLI TILLARDAGI ANTONIMLARNING LINGVOKULTUROLOGIK XUSUSIYATLARI. *Scienceweb academic papers collection*
9. Andrew, J. S. (2023). ARTISTIC DISCOURSE AND ANTONYMS IN IT AS A CULTURAL FACTOR. *Open Access Repository*, 9(3), 409-411.